

DAVLAT BOSHQARUVIDA STRATEGIYANI TANLASH STRATEGIK REJALASHTIRISH VA UNING BOSQICHLARI

Jiyanmuradov Temurbek Jabbor o'g'li

Toshkent tumani 1-son kasb-hunar
maktabi "Davlat va huquq asoslari"
va "Tarbiya" fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lgan strategiya va strategik dasturlar ishlab chiqishning mohiyati, kerakli va zarur strategiyani tanlash va uni tanlashdagi muhim omillar bir qadar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Strategiya, dastur, mexanizm, prognozlashtirish, boshqaruv, davlat, siyosat.

Hozirgi kunga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi va ommalashdi. Strategiya bu, xalqaro miqyosida va davlat ichki faoliyatidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy holatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqaruvni tashkil etish va uni amalga oshirish masalalariga oid tushunchalarni qamrab oladi. Shunga asoslanib, davlat strategiyasi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

Mustaqillikka erishgan yoki o'z taraqqiyotining yangi bosqichini boshlayotgan mamlakatlarning kelajagi uchun strategik taraqqiyot modellari, strategik dasturlar va strategik rivojlanish tendensiyalari ishlab chiqish muhim hamda zarur jihatlardir. Strategik boshqaruv borasida tadqiqotlar olib borishdan avval, birinchi navbatda, strategiya deganda, nima nazarda tutilishini aniqlab olish zarur, chunki ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchaning turli xil ta'rifini uchratish mumkin. Strategiyaga berilgan ta'riflar soni anchagina bo'lib, uning asosida hiylakor reja, harbiy, fuqarolik, siyosiy, siyosiy-iqtisodiy, geostrategik muvaffaqiyatga yoki shaxsiy manfaatlarga erishish uchun o'ziga xos noodatiy kutilmagan harakatlar ma'nosi anglashiladi. Zamonaviy politologiyada ushbu tushuncha keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Tavsiflar nechog'lik ko'p bo'lmasin, ularni umumlashtirib, quyidagi ikki ko'rinishda ifoda etish mumkin. Ya'ni:

1) strategiya-ma'lum bir vaqtni ko'zlab mamlakat siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirishning umumiy va asosiy talablari, vosita va uslublari majmui;

2) strategiya davlatning muayyan bir soha doirasida uzoq muddatli maqsad va manfaatlarini amalga oshirish va ularga erishishga qaratilgan istiqbolli dastur.

Har qaysi siyosiy sub'yekt strategiyasi o'z ichiga quyidagi masalalarni qamrab oladi:

a) avvaldan rejalashtirib, ishlab chiqilgan dastur asosida davlat va boshqa siyosat sub'yektlariga tegishli bo'lgan kuch va vositalarning o'zaro munosobati yoki maqsadli faoliyati;

b) ma'lum bir maqsadlarga manfaatli erishish yo'lida hal qiluvchi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish yoki belgilab olish;

v) ma'lum bir maqsadli faoliyatni tizimli ravishda amalga oshirish, uning har bir bosqichiga taaluqli bo'lgan kamchilik va ustunliklarni anglash;

g) strategiya siyosiy jarayonlarni rejalashtirish va boshqarish darajasidir¹.

Shuningdek, politologiya ensiklopedik lug'atida ta'riflanishicha, "strategiya" tushunchasi harbiy san'atning bir bo'lagi sifatida keltirilib, u mamlakatni va harbiy kuchlarni nazariy va amaliy jihatdan urushga tayyorlash masalalarini o'z ichiga oladi. Harbiy strategiya davlatning harbiy doktrinasi asosida aniqlanadi².

Politolog F. Hikmatovning Siyosiy strategiyalar ishlab chiqish bo'yicha PhD dissertatsiyasida siyosiy strategiyaning ishlab chiqilishida quyidagi tamoyillarni ahamiyatli ekanligini aytib o'tganlar:

1. siyosiy strategiya samarali bo'lishi uchun yangilikning kerakli darajasiga va moslashuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.
2. siyosiy strategiya kelajakka o'tishni optimal amalga oshirishi uchun, kelajak elementlarini bugunda qamrab olishi kerak.
3. siyosiy strategiya siyosat va strategiyaning bevosita sintezi emas.
4. siyosiy strategiya e'tiborni qaratadigan bo'lishi uchun, kelajak rivojining ijobiy variantlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
5. siyosiy strategiya davlatning siyosiy faoliyat sub'yektini strategik "o'yinchi" darajasigacha ko'tarishi kerak
6. siyosiy strategiya refleksiya tamoyiliga asoslanishi kerak.
7. o'z-o'zini tashkil qilish tamoyili
8. cheklangan ratsionalizm tamoyili
9. uzluksiz moslashuvchanlik tamoyili

Ushbu tamoyillar bevosita davlat boshqaruvida strategik dasturlar ishlab chiqish jarayonida asosiy tamoyil ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Negaki davlat boshqaruvidagi strategik dasturlar ma'lum muddatga tuzilgan bo'lib, unda aniq asosli yangiliklar bo'lishi kerak. Va bu yangiliklar kelajak faoliyatga moslashuvchan va kelajak prognozlariga asoslangan bo'lishi kerak. Bevosita strategik dasturda uni amalga oshirish mexanizmlarining holati inobatga olingan va strategik dastur kelajakka moslashuvchan bo'lishi bu dasturning yetarli darajada puxta bo'lishiga olib keladi.

Davlat boshqaruvida strategik dasturlar qabul qilishda asosiy omil bu strategiyani to'g'ri tanlashdir.

Strategiyani tanlash-bu strategik rejalashtirishning markaziy va asosiy masalasi hisoblanadi. Va uni tanlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

- muqobil strategiyalarni aniqlash;
- aniqlangan muqobil strategiyani maromiga yetkazish;
- maromiga yetkazilgan strategiyaga baho berish

Amaliyot jarayonida bu bosqichlarni bir-biridan ajratish mushkul. Zero, ular bir butun tahlil jaryonining turli darajasidagi tadbirlardir. Faqat turli bosqichlarda turli usullardan foydalaniladi.

Birinchi bosqich-davlat oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni ta'minlovchi kerakli strategiya belgilab olinadi. Bu jarayonda eng asosiysi shu maqsadga erishishning turli va har xil alternativ variantlari ishlab chiqiladi. Bu ishga nafaqat yuqori bo'g'indagi rahbar kadrlarni, shuningdek quyi va o'rta bo'g'indagi tajribali kadrlarni ham jalb qilgan maqsadga muvofiq. Ishga mana shu tariqa yondashish tanlov imkoniyatini oshiradi va eng muqobil variantni tanlab olish imkonini beradi.

¹ Басенко Н.Н. Политология краткий словарь. -Ростов-на Дону, «Феникс» 2001. -С. 362.


² Аверьянов Ю.И. Политология энциклопедический словарь. -Москва. 1993. - С. 367.

Ikkinchi bosqich-bu bosqichda strategiya qayta ishlanadi va davlatning rivojlanish maqsadiga muvofiq darajaga keltiriladi. Shunday qilib ko'p qirrali umumiy strategiya ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich-tanlab olingan umumiy strategiyalar ichidan muqobil variantlar tahlil qilinadi va ushbu strategiyaning bosh maqsadni amalga oshirishdagi yaroqlilik darajasi baholanadi. Aynan ushbu bosqichda strategiya konkret va yangi mazmun bilan to'ldiriladi.


Aksariyat hollarda davlatlar ko'p muqobillik asosida strategiyani tanlashadi. Binobarin, davlat o'zining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy salohiyatini oshirmoqchi bo'lsa, turli xil yo'llardan va imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Boshqaruv funksiyasi sifatida strategik rejalashtirish butun boshqaruv funksiyalari uchun poydevor yoki boshqaruv tizimi funksional tuzilmasining asosi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish bu butun maqsadlarga erishish yo'lidagi asosiy ko'maklashuvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Strategik rejalashtirish o'zida shunday jarayon va qarorlarni mujassam etadiki, ular yordamida davlatning asosiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi strategiyalar ishlab chiqiladi. Boshqaruv apparatining faoliyati va uning asosida qabul qilinayotgan qarorlar davlatning o'z maqsadlariga erishishiga ta'sir etuvchi davlat boshqaruvi strategiyasini shakllantiradi. Ushbu jarayon quyidagicha shakllanadi.



1-chizma

Birinchi navbatda davlatning maqsadi o'rtaga chiqadi. Bunda har bir davlat o'z oldiga ma'lum bir maqsadni qo'yadi va ushbu maqsaddan keli chiqib qarorlar qabul qilinadi. Ushbu qarorlarni amalga oshirish yo'llari va vositalarini aniqlash yo'lida esa strategiyalar qabul qilinadi. Odatda strategiyalar ma'lum bir muddatga mo'ljallangan bo'ladi. Ushbu muddatlarga asoslanib strategiyalarni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin.




2-chizma

Strategik rejalashtirishni boshqarish bir-biridan kelib chiquvchi, o'zaro bog'liq bir nechta jarayon yig'indisi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda barqaror qarama-qarshi bog'liqlik va har bir jarayonning qolganlarga ta'sir etishi amal qiladi. Strategik rejalashtirish strategik boshqaruvning

komponentlaridan biri hisoblanadi. Strategiya boshqaruviga esa strategik rejalashtirishning sinonimi sifatida qaraladi.



Yuqoridagi chizmaga asoslanib, strategiya ishlab chiqish jarayonlarini quyidagicha tasniflash mumkin:



1. Davlatning g'oyasini aniqlash. Bu jarayon juda murakkab jarayonlardan biri bo'lib, bugungi kunda nozik jihatlarni e'tiborga olgan holatda ish ko'rishni talab etadigan jarayondir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga asosan hech bir g'oya davlat g'oyasi bo'la olmasligi mezonidan kelib

chiqib, mamlakatimizdagi milliy g'oyaga murojaat etamiz. Ushbu g'oyada ozodlik va farovon hayot masalasi o'z ifodasini topgn. Shu jihatdan mamlakatimizda milliy g'oya sifatida ushbu g'oya tanlangan ekan, demak mana shu g'oya asosida strategiyani belgilab olishimiz maqsadga muvofiq. Ya'ni strategiya ushbu g'oyani, ya'ni ozodlikni mustahkamlash va xalq farovonligini ta'minlashni amalga oshirishga xizmat qilishi zarur.

2. Maqsad va vazifalarning shakllanishi. Maqsad va vazifalar yuqoridagi g'oyaga asoslanib shakllantiriladi. Ya'ni biz strategiya ishlab chiqish jarayonining dastlabki bosqichi g'oyani aniqlash masalasida g'oya aniqlangan bo'lib, endigi jarayon ushbu g'oyaga asoslangan holda maqsad va vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi.

3. Tashqi omillarni tahlil qilish va baholash. Ushbu jarayon strategik rejalashtirishning boshlang'ich jarayonlaridan hisoblanadi. Chunki bu davlatning o'z maqsadlariga erishishi va o'z strategik rejasini ishlab chiqishi uchun ba'zani ta'minlaydi. Bunda xalqaro siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tahlil qilish. Xalqaro siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish. Xalqaro siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarixiy tendensiyalari, bugungi kundagi holati va albatta yaqin va uzoq kelajakdagi holati, yaqin yillar ichida va uzoq yillar ichida kutilayotgan o'zgarishlarning prognozi va tahlili, yaqin qo'shni davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy vaziyat, yaqin aloqadagi va strategik hamkor bo'lgan davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy holat va boshqa jihatlariga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Chunki har qanday davlat xalqaro aloqalar va jarayonlar ta'siridan chiqqa olmaydi va har bir davlat xalqaro hamjamiyatning ajralmas bir qismi sifatida xalqaro miqyosda bo'layotgan jarayonlar va o'zgarishlarning ta'sirini o'zida ma'lum darajada his etadi.

4. Ichki shart-sharoitni tahlil qilish va baholash. Ichki muhit va shart-sharoitlarning tahlili davlat o'z maqsadlariga erishishi jarayonidagi raqobat kurashida tayanishi mumkin bo'lgan ichki imkoniyat va salohiyatni aniqlash imkonini beradi. Ichki muhit va shart-sharoitlar tahlili davlatning maqsadini aniqlash va o'z g'oyasini amalga oshirishi uchun imkon yaratadi. Ichki shart-sharoitlar va ichki muhit quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqiladi.

1

• -mamlakatdagi mavjud siyosiy muhit va vaziyat;

2

• -mamlakatdagi ijtimoiy holat;

3

• -mamlakatdagi iqtisodiy holat;

4

• mamlakatdagi moddiy resurslar miqdori va sifat darajasi

5

• -moliyaviy manbaalar. Ularning miqdori turlari


6

• -kadrlar salohiyati. Ya'ni davlat strukturalarida xizmat qilayotgan kadrlarning salohiyati

7

• -boshqaruvni tashkillashtirish. Ya'ni strategiyani amalga oshirishni tashkil etish jarayonlari

5. Strategiyani baholash va nazorat qilish. Strategiyani amalga oshirishni baholash va nazorat qilish strategik rejalashtirishning yakunlovchi jarayoni hisoblanadi. Bunday o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlash vositasi nazorat bo‘lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:



Bunday nazoratning asosiy vazifasi strategiyani qanday sharoitlarda, qay darajada amalga oshirish davlatning g‘oyasi va maqsadlariga erishishga olib kelishini tushuntirishdan iborat. Shuning uchun strategik nazorat natijalari bo‘yicha rejani to‘g‘irlash, davlat maqsadlari singari uning strategiyasiga ham tegishli bo‘lishi mumkin, chunki nazoratning ushbu turi operativ nazoratdan o‘zining mustahkamligi bilan farq qiladi.

6. Strategiyani amalga oshirish. Strategik rejaning bajarilishi murakkab jarayondir, chunki reja juda ham aniq ishlangan bo‘lsa, u davlatni muvafaqqiyatga olib boradi. Aksincha bo‘lsa esa, buning teskarisi bo‘lishi mumkin. Chuqur ishlab chiqilgan strategik reja ham agar uni amalga oshirish choralari ko‘rilmasa, barbod bo‘lishi mumkin. Davlatlarning ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshira olmaslik holatlari ham oz emas. Buning sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin.

-Noto‘g‘ri tahlil qilish va xato xulosa chiqarish;

-Xalqaro maydondagi kutilmagan o‘zgarishlar

-Davlatlarning o‘z strategiyalarini amalga oshirish jarayonida o‘z salohiyatlaridan unumli foydalana olmasligi. Strategiyani muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi talablarni e‘tiborga olib rioya qilish zarur.

-Strategiyaning maqsadi va tadbirlari yaxshi tuzilgan bo‘lib, ular insonlar va davlat xizmatchilari ongiga singdirilgan bo‘lishi kerak.

-Strategiyani amalga oshirishda rejani barcha zaruriy resurslar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi juda ham aniq harakat yo‘nalishi bo‘lishi zarur.

7. Strategik muqobillarini ishlab chiqish va tahlil qilish va strategiyani tanlash. Bu jarayon strategik rejalashtirishning o‘zagi hisoblanadi, chunki unda davlatning o‘z maqsadlariga qanday erishishi va asosiy ko‘zlangan g‘oyani amalga oshirishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi. Strategik tanlash aniq va bir ma‘noli bo‘lishi kerak

Xulosa

Strategiya tanlash va strategik rejalashtirish bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan muhim masalalardir. Bu jarayonlarda davlatning kelgusi harakatlanish yoʻnalishlari va shu yoʻnalishlar asosida davlat qonunchilik hokimiyati va ijroiya tuzilmalari kerakli normativ-huquqiy hujjatlar va kerakli davlat dasturlari ishlab chiqadilar va amaliyotga tatbiq etadilar. Bu huquqiy va amaliy harakatlar bevosita tanlangan strategiya asosida boʻladi. Agar strategiya yaxshi tanlansa, bu davlatning taraqqiyotiga, aksincha boʻlsa, tanazzuliga sabab boʻlishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Басенко Н.Н. Политология краткий словарь. -Ростов-на Дону, «Феникс» 2001. -С. 362.
2. Аверьянов Ю.И. Политология энциклопедический словарь. -Москва. 1993. - С. 367.
3. Хикматов Фатхулла Хабибуллаевич Ўзбекистон Миллий Университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи dsc.03/30.12.2019.ss.01.08 рақамли илмий кенгаш Ўзбекистон Миллий Университети Давлат сиёсатида стратегик бошқарувнинг замонавий хусусиятлари(Ўзбекистон мисолида) 23.00.02-сиёсий институтлар, жараёнлар ва технологиялар сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси тошкент-2020